

O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATIDA SHEVALARNING TUTGAN O'RNI

Allanova Marjona Jumanazar qizi

TerDu, o'zbek filologiyasi talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada o'zbek tilining izohli lug'atidagi adabiy tilga oid so'zlarning shevalarda qo'llanishi va ularning kelib chiqishi ya'ni etimologiyasi haqida ma'lumotlar berib o'tiladi*

Kalit so'zlar: *izohli lug'at, adabiy til, etimologiya, tilshunoslik, "Devoni lug'atit turk", proteza, prokopa*

Milliy til, umumxalq tili va adabiy til tushunchalari tilning qirralari (aspekt)ga oid tushunchalar bo'lib, ular o'zaro umumiylikka ega va bir birlari bilan uzviy bog'langandir. Lekin ular orasida o'zaro ma'lum darajadagi farq va o'ziga xos tomonlari ham mavjud. Milliy tushunchasi umumxalq til tushunchasiga barobardir. Biz asosan yo'nalishimiz doirasida o'zbek tilining izohli lug'atlardan foydalanamiz. Bu lug'atda asosan adabiy tilga oid so'zlar kiritilgan. Lekin shu bilan birga shevadagi varianti ham kiritilgan. Hozir amalga oshiradigan tahlili o'zbek tilining izohli lug'atidagi so'zlarning turli sheva vakillari tilidan yozib olingan so'zlarning ma'nolari va etimologiyasi haqida ma'lumotlar berib o'tamiz.

Etimologiya (ἔτυμον — haqiqat va λόγος [logiya] — so'z; so'zning haqiqiy ma'nosi) — 1) so'z va morfemalarning kelib chiqishini o'rganuvchi tilshunoslik bo'limi; 2) so'zning kelib chiqishini aniqlashga qaratilgan tadqiqot usullari majmui; 3) so'zning kelib chiqishi. 19-asr tilshunosligida „Etimologiya“ termini „grammatika“ ma'nosida ham qo'llangan.

Tilshunoslik bo'limi hisoblangan etimologiyaning asosiy vazifasi qadimiy manbalarni hamda til lug'at tarkibining shakllanish jarayonini va uning dastlabki, qadimiy holatini tiklashdan iborat. Har bir til leksikasida muayyan miqsordagi so'zlar borki, ularning shakli bilan ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlik shu til egalari uchun tushunarsiz bo'lib qolgan, chunki so'zning tarixan o'zgarib borishi uning dastlabki shakl va ma'nosini xiralashtirib qo'yadi, bunday so'z strukturasi tildagi mavjud yasalish qoliplari orqali izohlab bo'lmaydi.

Lug'at — 1) muayyan tilda, uning hududiy yoki ijtimoiy lahjasida mavjud bo'lgan, u yoki bu yozuvchi asarlarida uchraydigan so'zlar yig'indisi, leksika; 2) so'zlar (yoki morfemalar, so'z birikmalari, iboralar va boshqalar) muayyan tartibda (alifboli, uyali, mavzuli) joylashtirilgan, tavsiflanuvchi birliklar, ularning kelib chiqishi, ma'nolari, yozilishi, talaffuzi, uslubiy mansubligi, boshqa tillarga tarjimasini haqida ma'lumotlar jamlangan kitob. Lug'atlar ma'naviy madaniy sohada muhim o'rin egallaydi, ularda jamiyatning ma'lum davrda erishgan bilimlari aks etadi. Lug'at bir qator ijtimoiy vazifalarni bajaradi: o'quvchiga muayyan hodisa haqida ma'lumot beradi; uni o'z va o'zga tillardagi so'zlar bilan tanishtiradi; tilni, uning lug'at tarkibini takomillashtirish

va tartibga solishga yordam beradi. Izohli lug'at — lingvistik lug'at turlaridan biri. Unda, birinchidan, lug'atga kiritilgan har bir so'zning (bosh so'zning) ma'nosi, ko'p ma'noli bo'lsa, ma'nolari belgilanadi va qayd etiladi. Ikkinchidan, bu ma'no (ma'nolar) izohlanadi, ya'ni tushuntiriladi — tavsifiy yo'l bilan qayd etiladi. Xuddi shu xususiyatiga ko'ra „Izohli lug'at“ deb ataladi.

So'zlar tahlili

Qo'shni- uylari, hovli-joylari bir biriga yaqin yoki yonma-yon bo'lgan kishilar. Adabiy tilda shunday beriladi, shevalarda esa Jarqo'rg'on tumanidagi :Oq tepa, Ismoil tepa, G'ur-g'ur mahallarida— hämsiyä O'zbekiston, Hamid Olimjon mahallasida— hamsoya, Termiz tumanida esa—qo'shni deb aytiladi. Bu so'zning etimologiyasi haqida gapiradigan bo'lsak, ot so'z turkumiga oid so'z bo'lib „ma'lum joydan o'rin olgan yer“ degan ma'noni anglatadi. Yasalishi „Qon“fe'liga -ch qo'shimchasi qo'shish bilan, keyinchalik -ch undoshi-sh undoshiga almashib ketgan undan keyinchalik esa -nsh undoshlaridan o'rin olgan. O'zbek tilida -n undoshining qattqlik xususiyati yo'qolgan qon+chi, qon+shi, qoshn—qoshni shakllari vujudga kelgan. MahKoshg'ariy „Devoni lug'atit turk“asarida „qoshn“ shaklidan foydalangan.

Sigir- buzoqlagan urg'ochi qoramol ya'ni ikki yoshdan oshgan urg'ochi mol. Buni shevada aytilishi quyidagicha :Jarqo'rg'on, Angor, Muzrabot tumanlarida—siyir, Termiz, Boysun tumanlarida—g'ünäjün, Andijon viloyatida esa inäk deb ataladi. Sigirning bolasi esa Jarqo'rg'on, Qashqadaryoda—büzov, Andijonda—büzäk deb nomlanadi. Bunda kelib chiqadiki har bir hududda yashovchilarning shevasi turlichadir. Müräbbo—arabcha so'zdan olingan bo'lib aslida murabbâ shakliga ega bo'lib so'z oxiridagi -â unlisi -ä unlisiga almashtirib qabul qilingan. Asli „kuzatish“ ma'nosini anglatuvchi „rabasä“ fe'lidan olingan bo'lib mevalar bilan shakar aralashtirilib tayyorlanadigan shirinlik. Müräbbo ham shevada turli nomlar bilan nomlaydilar misol uchun :Samarqandning ba'zi joylarida väryonni, ba'zi joylarida murabbo shaklida aytadi. Ärqon—o'simlik tolalaridan eshib tayyorlangan yo'g'on bog'lash buyimi. Bu qadimgi turkiy tildagi „esh“, „bura“ ma'nosini anglatgan ar—fe'liga „takror“ manosini ifodalovchi -qa qo'shimchasining -g'a ko'rinishini qo'shib xosil qilingan shaklidan -m qo'shimcha bilan yasalgan otga kichraytirish ma'nosini ifodalovchi -cha qo'shimchasini qo'shib xosil qilingan. Jarqo'rg'on, Angor, Surxon tumanlarida—jip, Boysun, Termiz tumanlarida—ip, Muzrobotning ba'zi joylarida—yip, ba'zi joylarda esa g'älyäk ma'nosi ham uchraydi. Yip so'zi bilan ip so'zini oladigan bo'lsak—ip so'zini agar shevadagi so'z deb aytsak, shevada esa [jip] bunda „proteza“ hodisasi bo'lib [j] tovushi ortadi. Agar Jip so'zini olib [ip] so'zi shevada desak bunsä „prokopa“ hodisasini kuzatishimiz mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki o'zbek tilining lug'at boyligini oshirish, rivojlantirish uchun chet tillaridan kirib kelayotgan so'zlarni o'zimizning tilga moslashtirish shar emas, lug'at boyligimizni oshirish uchun shunchaki hozirda iste'moldan chiqarib yuborilgan so'zlarni adabiy tilimizga qaytarsak yoki ba'zi shevadagi so'zlardan foydalansak ham lug'at boyligimiz ham anchayin boyiydi va o'z

milliyiligimizni ham saqlab qolgan bo'lamiz. Ko'pchilik chet davlatlarda mana shu usulni qo'llab kelishmoqda. Agarda bu yo'nalish ishga tushirilsa chetdan kirib kelayotgan tilimizga o'rnashib olib milliyiligimizni yo'qotib borayotgan so'zlardan xalos bo'lar edik

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 Rahmatullayev Shavkat "O'zbek tilining etimologik lugalat" Toshkent "Universitet" 2000 bu lug'atining 1-2-3-tomlaridan foydalanilgan
- 2 Polvonnazarova Hayotxon "Adabiy tilning og'zaki va yozma shakllari" www.in-acadimiy.uz.
- 3 Jamolxonov H. "Hozirgi o'zbek adabiy tili" Toshkent: Talqin- 2005 yil
- 4 Reshetov V.V. Shoabduraxmonov. Sh. "O'zbek dialektalogiyasi" Toshkent 1978-yil
- 5 O'zbek tilining izohli lug'atining elektron shakli.